

## Turkiston muxtoriyati (birinchi raqamdin moba'd)

Ori! Rusyaning butun bo'laklikka tushmokig'a muvaqqat hukumat nomidagi Kirinskiy hukumati sabab bo'ldi. Vallohi a'lam agar shul hukumat hozirgacha davom etgan bo'lsa edi, Rusiya qandoy holga kelmagon bo'lar edi? ... Lekin ul hukumat dunyog'a chiqqan kunidan boshlob o'z qabrini o'zi kovlarga kirishgan bir hukumat bo'lg'oni uchun oning bir kun davomi ajal daqiqalarining yoqinloshmoqinding'ina iborat bo'lur edi. Shul sababli har kim oning bugun yo'ertaga deyor odimga yo'llanmoqini to'rt ko'z ila kutar edi.

O'ktobrning 25 larida nihoyat muvaqqat hukumat nomindagi hukumat a'zolari qabrlarini kovlob tamom etdilar. Endi olorni shul qabrga tushurmak va ustlarig'a tuproq to'kmak masalasigina qolq'on edi. O'ktobr 25 larinda ushbu masalanida hal etdilar. Bolshivik firqasi vatan va xalqni halokatdin xalos etmak maqsadi oliysi bilan maydong'a chiqdilar. Birinchi inqilob hukumatining a'zolarini o'zlarini kovlogen qabrlariga tushurib ko'mub qo'ydilar.

Ikkinci inqilob hukumati o'zini sho'rolar hokimiyati deb e'lon etdi. Hukumatning eng birinchi ishi foydasiz urushni to'xtotmoq va dushmanlarimiz ilan sulk bog'lomoq masalasi bo'ldi. So'ngra har bir millatlarning hurriyati e'lon etildi. Ushbudan istifoda etib Turkiston ham o'zining muxtoriyatli bir hukumat ekanligini e'lon etdi. Lekin ushbu hukumatda a'zo bo'lg'on kishilar qozilardin, ulamo va boylardin tarkib bir hayat bo'lg'oni sababli olorning qandoy yo'l tutojoqlari ma'lum edi.

Yana hukumat sho'rolar hukumati e'tirof etmak va etmaslikga mo'taraddid<sup>1</sup> bo'lunur edi. Ichlarinda dunyodin va siyosatdin xabardor odamlar oz va oz bo'lmoqi ila barobar hech bir nufuzga ham molik emas edilar. Onda har narsa ishlansa, dunyodin va siyosatdin bexabar ulamonning kayfig'a qorob ishlanur va boylar maqsadig'a muxolif bir narsa muzokaraga qo'yilsa, "buni ulamo ma'quil ko'rmaydir" deb boylar ziyoli a'zolarni oldorlar edi. Bungo ilova: zaif va kuchsiz mazlum sinflardin bu hukumat a'zolari ichinda vakil ham yo'q, yoki bo'lsa ham olorning so'zları e'tiborga olinurliq emas va olinmas ham edi. Shul sababli; oning bir jihatdin asrlardan beri ezilib kelgon faqir xalq uchun foydasizligi va ikkinchi jihatdan munday boylar foydasig'agina yana turgan bir muxtoriyat hukumatining ushbu kungi sho'rolar hukumati tarafinda tasdiq etilmasligi ham ko'runub tura edi. Shuning ustiga Xo'qand voqeasidek tosifli va fojialik bir voqeanning zuhurindan ham xalqni qoytoro olmodi. Ana shul sabablar uchun ul yosho olmodi va yoshomasga tebishli ham edi. Chunki takror yozg'anizmizcha, oning yoshomoki Turkistonda ko'pchilikni tashkil qilg'on faqir xalq uchun mahz<sup>2</sup> suratlik va Turkistonning istiqboli uchun ham ko'b jihatlardin xatarlik edi.

Turkistonning eski muxtoriyatini o'rninda ushbu kungi muxtoriyat e'lon etildi. Ushbu muxtoriyatning ishchi, dehqon va faqir xalqning manfatini himoya qilaturg'on bir muxtoriyat bo'lg'oni sababli tabiiy, tabriklab va (hoy)-huylab

---

<sup>1</sup> Mo'taraddid – ikkilish, shubha, qat'iyatsiz.

<sup>2</sup> Mahz – chinakam, haqiqiy.

qorshi oluvchilarin-da shunlar bo‘ldilar. Oni yoshotuvchilarning-da shunlar va aksilinqilob tarafdarlarining tasiridan muhofaza qiluvchilar ham shunlar bo‘lojoqdir.

Yangi muxtoriyat biz turkistonlilar uchun yana foydaliroq bo‘lg‘oni sababli, tabiiy oning baqo va davomini ham boshqalardin ko‘ra ziyodaroq biz orzu etamiz. Fikrimizcha nodonliq zulmatindin qutulib ilm va maorif yoruqlig‘ig‘a chiqmog‘imizg‘a va boshqa millatlar qotoridan dunyoda yoshomokga kasb istiqoq etarga Turkistonning hozirgi usul idora ila idora qilinoturg‘on muxtoriyatli bir hukumat bo‘lmog‘i birinchi choradir. Faqat mundin istifoda eta olmoqimiz lozimdir. Umum dorolfnunlari va boshqa ochilojoq ilm yurtlari durust har bir millat uchun ochilodir. Faqat boshqa millatlardin ko‘ra bularg‘a biz ziyodaroq muhtojmiz. Shul sababli, bularg‘a boshqalarg‘a qorog‘onda biz musulmonlar ko‘broq ahamiyat berurga tebishlimiz. Umum dorolfnunlarining va g‘ayri ilm yurtlarining mutlaqo biz turkistonlilar ila to‘lmog‘i fursatidir.

Ilmg‘a ahamiyat bermasak Turkistonni bolshiviklarga emas, amir odil hazratlari qoytib kelib idora etsada, foida bo‘lmoydur. Takror aytaman: ushbu kungi hurriyatdin va xalqdin oling‘on aqchalarning xalqning o‘z havoyichig‘a sarf qilinmoqindin bolosinqoda: shaharlarning har mahallalarindagina emas, to‘quzor xonalik qishloqlarimizda ham muntazam biror ibtidoi maktabxonalar ochmoqimiz ayno farzdir. Bizni halokatdin, faqirlikdin, zabunlik va siqiqlikdan qutqoroturg‘on narsa yolg‘uz maktablardir. Istiqbolimizning Temurlar, Ulug‘beklar davrindagi kabi porloq bo‘lmoqi va Turkistonning ushbu kunga qadar qo‘zg‘onilmog‘on xazoin nomitnosiyasindin istifoda etarga iste’dod kasb etmokimiz ham maktablar soyasidagina mumkindir. Dunyoda ma’sud yoshorga tilasok: “maktabli millatlarga dunyoda insoncha yoshorga haqlidirlar” kalimasini kalimayi tawhid kabi tilimizda takror etarga va ma’nosinada kalimayi tawhidning ma’nosig‘a ishong‘onimiz kabi qalbimiz ila ishonurg‘a tebishlimiz. Shundoy bo‘lsog‘ina chin musulmon va dunyoda yoshorga haqi bor chin inson bo‘lurmiz, bo‘lmasa yo‘q.

*Shokir Muxtoriy. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi.  
1918 yil 16 iyul.*